TILSHUNOSLIK

**UDK: 811.111’342.41:811.512.133’342.41** **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss5/a50**

# INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA UNDOSHLARNING FONETIK VA GRAFEMIK XUSUSIYATLARIDA IZOMORFIZM VA ALLOMORFIZM

# ИЗОМОРФИЗМ И АЛЛОМОРФИЗМ В ФОНЕТИЧЕСКОЙ И ГРАФЕМИЧЕСКОЙ ОСОБЕННОСТИ СОГЛАСНЫХ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

# ISOMORPHISM AND ALLOMORPHISM IN THE PHONETIC AND GRAPHEMIC PECULIARITIES OF CONSONANTS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

**[1]Radjabov Nasir Nasimovich**

[1]O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Tillarni o‘rganish kafedrasi dotsenti, fil. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

***Annotatsiya***

*Maqola ingliz va o‘zbek tillaridagi undosh fonemalarning fonetik va grafemik jihatdan izomorf va allomorf xususiyatlarini aniqlashga bag‘ishlangan. Unda akustik jihatdan har ikki tilda mavjud undoshlarning distributsiyasi, yozuvdagi ifodasi, shuningdek, chog‘ishtirilayotgan tillarda o‘zaro muqobili bo‘lmagan undoshlarning o‘ziga xos jihatlari aniq misollar bilan asoslangan. Maqola so‘ngida undoshlarning artikulyasion-akustik xususiyatlaridagi tafovutlar, ularning yozuvda o‘ziga xos tarzda voqelanishi o‘zbek va ingliz tillarida undoshlar tizimi fonetik va grafemik jihatdan o‘zaro to‘liq ekvivalent bo‘la olmasligini taqozo qiladi, deb xulosa qilingan.*

***Аннотация***

*Статья посвящена определению фонетически и графемически изоморфных и алломорфных свойств согласных фонем английского и узбекского языков. В статье на конкретных примерах обоснована дистрибуция согласных, способы их выражения на письме в обоих языках в акустическом плане, а также специфические особенности согласных, не имеющих альтернативы в сравниваемых языках. В заключении статьи был сделан вывод о том, что различия в артикуляционно-акустических свойствах согласных, их уникальное возникновение в письменной форме означают, что система согласных в узбекском и английском языках не может быть эквивалентной с фонетической и графемической точки зрения.*

***Abstract***

*The article is devoted to determining phonetically and graphemically isomorphic and allomorphic properties of consonant phonemes in the English and Uzbek languages. In the article, the distribution of consonants in both languages, the ways of how they are expressed in writing, as well as the specific peculiarities of consonants that do not have a mutual alternative in the compared languages, are revealed with specific examples. At the end of the article, it was concluded that the differences in the articulatory-acoustic properties of consonants, their unique occurrence in writing, means that the consonant system in the Uzbek and English languages cannot be phonetically and graphemically equivalent.*

***Kalit so‘zlar:*** *undosh, fonema, grafema, distributsiya, fonetik xususiyat, grafemik jihat, izomorfizm, allomorfizm.*

***Ключевые слова:*** *согласный, фонема, графема, дистрибуция, фонетический признак, графемный аспект, изоморфизм, алломорфизм.*

***Key words:*** *consonant, phoneme, grapheme, distribution, phonetic feature, graphemic aspect, isomorphism, allomorphism.*

## KIRISH

Chog‘ishtirma tilshunoslik tillarni nazariy, lingvodidaktik, tarjima kabi turli maqsadlarda qiyoslab o‘rganishi [19] natijasida chog‘ishtirilayotgan tillarning kichik tizimlaridagi izomorf va allomorf xususiyatlar ochib berilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Ikki tilning ma’lum bir tizimlaridagi o‘ziga xosliklar borasida xulosa qilishda ularni nazariy hamda lingvodidaktik maqsadlarda chog‘ishtirish asos vazifasini bajaradi [14]. Shu nuqtai nazardan, ingliz va o‘zbek tillaridagi undoshlar tizimining fonetik va fonologik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash undosh fonemalarning artikulyasion-akustik belgilari, distributsiyasi, lingvistik vazifalari, pozitsion ko‘rinishlari, shuningdek, grafemik xususiyatlarini birma-bir chog‘ishtirishni taqozo qiladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ingliz tilida undoshlarning fonetik xususiyatlari D.Jounz [24], A.Koyen [22], A.S.Gimson [23], Ulriti Gut [29], V.A.Vasilev [30], G.P.Torsuev [16], S.F.Leonteva [26], M.A.Sokolova [15], A.A.Abduazizov [2], A.G.Maxsumov [6], E.A.Anisimova [3] kabi tilshunoslar tomonidan tadqiq qilingan. O‘zbek tilida undoshlarning fonetik xususiyatlari A.F.Syoberg [28], D.E.Polivanov [11],

V.V.Reshetov [13], Sh.Shoabdurahmonov [18], X.Daniyarov [4], A.Mamatov [7], S.Otamirzaeva [10], T.Qudratov [20], A.A.Abduazizov [1], A.Maxmudov [8], SH.Rahmatullaev [27], M.M.Mirtojiev [9] kabi tilshunoslar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, ularda mazkur tillarda undoshlarning artikulyasiyasi, akustikasi, eshitilishidagi o‘ziga xosliklari o‘rganilgan. Ingliz tilida undoshlarning grafemik xususiyatlarini o‘rgangan D.Jounz undosh fonemalarning yozuvda ifodalanish xususiyati o‘ziga xos ekanligini ta’kidlab, unga ko‘ra, bir fonema bir nechta harf va harf birikmalari bilan voqelanishi mumkinligi izohlaydi. Bu borada o‘zbek tili undosh fonemalari o‘ziga xos bo‘lib, ular yozuvda bir harf bilan ifodalanadi.

Undoshlarning fonetik xususiyatlari ularning artikulyasion-akustik tasnifida, perseptiv jihatdan o‘ziga xosligi, shuningdek, undoshlarning so‘zdagi distributsiyasida namoyon bo‘ladi. Ingliz tilida undoshlarning fonetik tasnifi D.Jounz, Ulriti Gut, A.A.Abduazizov kabi tilshunoslar tomonidan talqin qilingan. D.Jounz ingliz tili undoshlarini, asosan, *ovozning ishtirokiga, hosil bo‘lish o‘rniga va hosil bo‘lish usuliga ko‘ra* kabi uch me’zon asosida tasnif qilgan [24]. Ulriti Gut ham D.Jounz kabi ingliz tili undoshlarining fonetik tasnifini mazkur uch me’zon asosida keltiradi [29]. A.A.Abduazizov esa ingliz tili undoshlarini *hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra, hosil bo‘lish usuliga ko‘ra, ovozning ishtirokiga, yumshoq tanglayning holatiga ko‘ra* kabi me’zonlar asosida fonetik tasnif qilgan [21]. O‘zbek tilida undosh tovushlarning fonetik tasnifi V.Reshetov [12], A.N.Kononov [5], Sh.Rahmatullayev [27], A.Maxmudov [8], M.M.Mirtojyiev [9], A.Abduazizov [1] kabi tilshunoslar tomonidan amalga oshirilgan. O‘zbek tilida amalga oshirilgan undoshlar tasnifi “atama” nuqtai nazaridan o‘zaro u yoki bu darajada farq qilsada, mazmun jihatdan o‘zaro hamohang sanaladi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Undoshlar tizimi ingliz tilida 24 ta, o‘zbek tilida 25 ta fonemani o‘z ichiga oladi. Ingliz tilidagi /θ/, /ð/, /w/ fonemalari o‘zbek tilida mavjud emas. Shuningdek, o‘zbek tilidagi /q/, /gˈ/, /x/, /ts/ fonemalari ingliz tilida uchramaydi. Chog‘ishtirilayotgan undoshlar tizimlaridagi qolgan /b/, /d/, /v/, /z/, /ʒ/, /dʒ/, /g/, /j/, /p/, /t/, /f/, /s/, /ʃ/, /tʃ/, /k/, /h/, /l/, /r/, /m/, /n/, /ŋ/ undosh fonemalari har ikki tilda mavjud bo‘lsa-da, ular o‘zlarining fonetik, fonologik, hamda grafemik xususiyatlari bilan o‘zaro farq qiladi. Mazkur fonemalarning chog‘ishtirilayotgan tillardagi artikulyasion-akustik tanifi, distributsiyasi, shuningdek, ularning yozuvdagi ifodasi quyidagi o‘ziga xosliklarga ega:

/b/ fonemasi ingliz va o‘zbek tillarida lab-lab, portlovchi, jarangli, og‘iz undoshi bo‘lib, distributsiyasiga ko‘ra u ingliz tilida so‘zning istalgan o‘rnida (so‘z boshida: back /bæk/ - orqa, so‘z o‘rtasida: abbey /ˈæb.i/ - cherkov turi, so‘z oxirida: cab /kæb/ - yuk mashina kabinasi), o‘zbek tilida so‘z boshida (bor /bɒr/) va so‘z o‘rtasida (obid /ɒˈbɪt/) qo‘llaniladi. O‘zbek tilida undoshlarning jarangli belgisi so‘z oxirida jarangsizlanishi sababli /b/ fonemasi so‘z oxirida uchramaydi. Grafemik xususiyatiga ko‘ra /b/ fonemasi ingliz tilida “b”, “bb” kabi harf va harf birikmalari bilan (box /bɒks/ - quti, rubble /ˈrʌb.l/ - tosh bo‘laklari), o‘zbek tilida “b” harfi bilan (ber /ber/) ifodalanadi. “b” harfining ba’zi so‘zlarda o‘qilmaslik holati ingliz tiliga xos bo‘lib (lamb /læm/ - qo‘zichoq, doubt /daʊt/ - shubha), uning bu xususiyati o‘zbek tilida uchramaydi.

/d/ fonemasi artikulyasion-akustik belgisiga ko‘ra ingliz tilida til oldi, alveolar, portlovchi, jarangli, og‘iz undoshi; o‘zbek tilida til oldi, portlovchi, jarangli, og‘iz undoshi bo‘lib, distributsiyasiga ko‘ra, uning so‘zdagi o‘rni ingliz tilida cheklanmagan (so‘z boshida: dark /dɑːk/ - qorong‘i, so‘z o‘rtasida: odour /ˈəʊ.də/ - hid, so‘z oxirida: card /kɑːd/ - karta), o‘zbek tilida cheklangan (so‘z boshida: daraxt /dʌˈrʌxt/, so‘z o‘rtasida: odil /ɒˈdɪl/) sanaladi. /d/ fonemasi o‘zbek tilida jarangli – jarangsiz belgisining neytralizatsiya qilinishi tufayli so‘z oxirida uchramaydi. YOzma nutqda /d/ fonemasi ingliz tilida, asosan, *“d”, “dd”, “ed”* kabi harf va harf birikmalari bilan (delete /dɪˈliːt/ - o‘chirib tashlamoq, add /æd/ - qo‘shmoq, begged /begd/ - yalindi), o‘zbek tilida “d” harfi bilan (dada /dʌˈdʌ/) beriladi.

/f/ fonemasi chog‘ishtirilayotgan tillarda lab-tish, sirg‘aluvchi, jarangsiz, og‘iz undoshi bo‘lib, u har ikki tilda ham so‘zning turli o‘rinlarida masalan, so‘z boshida (ingliz tili: fatty /ˈfæt.i/ - yog‘li, o‘zbek tili: fan /fʌn/), so‘z o‘rtasida (ingliz tili: afar /əˈfɑː/ - uzoq masofa, o‘zbek tili: zafar /zʌˈfʌr/), so‘z oxirida (ingliz tili: staff /stɑːf/ - ishchilar jamoasi, o‘zbek tili: sharaf /ʃʌˈrʌf/) kelishi mumkin. YOzuvda /f/ fonemasi ingliz tilida “f”, “ff”, “ph,”, “gh”, “lf” kabi harf va harf birikmalari bilan (face /feɪs/ - yuz, bet, scaffold /ˈskæf.əʊld/ - havoza, phase /feɪz/ - davr, faza, cough /kɒf/ - yo‘talmoq, calf /kɑːf/ - buzoq), o‘zbek tilida “f” harfi bilan (farq /fʌrq/) talqin qilinadi.

TILSHUNOSLIK

/g/ fonemasi ingliz va o‘zbek tillarida til orqa, portlovchi, jarangli, og‘iz undoshi bo‘lib, distributsiyasiga ko‘ra, u ingliz tilida so‘zning istalgan o‘rnida (so‘z boshida: gate /geɪt/ - darvoza, so‘z o‘rtasida: ago /əˈgəʊ/ - oldin, so‘z oxirida: bag /bæg/ - sumka), o‘zbek tilida so‘z boshida (gap /gʌp/) va so‘z o‘rtasida (agar /ʌgʌr/) uchrashi mumkin. O‘zbek tili undoshlarining jarangli belgisi so‘z oxirida neytralizatsiyaga uchrab, jarangsizlanishi tufayli /g/ fonemasi so‘z oxirida deyarli uchramaydi. Grafemik xususiyatiga ko‘ra /g/ fonemasini ingliz tilida “g”, “gg”, “gh”, “gu”, “gue” kabi harf va harf birikmalari (girl /gɜːl/ - qiz bola, aggressive /əˈgres.ɪv/ - hujumkor, ghee /giː/ - saryog‘ turi, guard /gɑːd/ - soqchi, epilogue /ˈep.ɪ.lɒg/ - xotima), o‘zbek tilida “g” harfi (borgan /bɒrgʌn/) ifodalab keladi.

/h/ fonemasi chog‘ishtirilayotgan tillarda bo‘g‘iz, sirg‘aluvchi, jarangsiz undosh bo‘lib, uning so‘zdagi o‘rni ingliz tilida cheklangan (so‘z boshida: hat /hæt/ - bosh kiyim, shlyapa, so‘z o‘rtasida: mahogany /məˈhɒgəni/ - yog‘och turi), o‘zbek tilida cheklanmagan (so‘z boshida: hamma /hʌmmʌ/, so‘z o‘rtasida: mohir /mɒˈhɪr/, so‘z oxirida: shoh /ʃɒh/) sanaladi. Yozma nutqda /h/ fonemasi ingliz tilida “h”, “wh” kabi harf va harf birikmalari bilan (hot /hɒt/ - issiq, whole /həʊl/ - butun, to‘liq), o‘zbek tilida “h” harfi bilan (guvoh /gʊˈvɒh/) beriladi. “h” harfi ingliz tilidagi ba’zi so‘zlarda o‘qilmaydi (hour /aʊə/ - soat, honour /ˈɒn.ə/ - sharaf, honest /ˈɒn.ɪst/ - vijdonli), biroq, uning bu xususiyati o‘zbek tilida yo‘q.

/dʒ/ fonemasi artikulyasion-akustik belgisiga ko‘ra ingliz tilida tanglay- alveolar, qorishiq, jarangli, og‘iz undoshi; o‘zbek tilida til oldi, qorishiq, jarangli, og‘iz undoshi bo‘lib, so‘zdagi o‘rniga ko‘ra, u ingliz tilida so‘z boshida: gym /dʒɪm/ (gimnastika), so‘z o‘rtasida: argy-bargy /ˌɑː.dʒiˈbɑː.dʒi/ (kelishmovchilik, munozara) hamda so‘z oxirida: large /lɑːdʒ/ (katta, keng), o‘zbek tilida so‘z boshida (joy /dʒɒj/) va so‘z o‘rtasida (bajar /bʌˈdʒʌr/) uchraydi. O‘zbek tilida undoshlarning jarangli belgisi so‘z oxirida jarangsizlanishi sababli /dʒ/ fonemasi so‘z oxirida deyarli uchramaydi. YOzuvda /dʒ/ fonemasi ingliz tilida, asosan, “g”, “j”, “ge”, “dge”, “di”, “gg” kabi harf va harf birikmalari bilan (giant /ˈdʒaɪ.ənt/ - nihoyatda katta, job /dʒɒb/ - ish, kasb, huge /hjuːdʒ/ - ulkan, badge /bædʒ/ - nishon, soldier /ˈsəʊl.dʒə/ - askar, exaggerate /ɪgˈzædʒ.ə.reɪt/ - oshirib ko‘rsatmoq), o‘zbek tilida “j” harfi bilan (jo‘ja /dʒoʻdʒʌ/) talqin qilinadi.

/k/ fonemasi chog‘ishtirilayotgan tillarda til orqa, portlovchi, jarangsiz, og‘iz undoshi bo‘lib, u har ikki tilda ham so‘zning turli o‘rinlarida masalan, so‘z boshida (ingliz tili: key /kiː/ - kalit, o‘zbek tili: karam /kʌˈrʌm/), so‘z o‘rtasida (ingliz tili: act /ækt/ - ijro etmoq, o‘zbek tili: aka /ʌˈkʌ/) va so‘z oxirida (ingliz tili: break /breɪk/ - sindirmoq, o‘zbek tili: terak /teˈrʌk/) kelishi mumkin. Ingliz tilida /k/ fonemasi urg‘uli unlidan oldin kelganida, odatda, biroz aspiratsiyali talaffuz qilinadi: kingdom /ˈkɪŋ.dəm/ [24]. Grafemik xususiyatiga ko‘ra, /k/ fonemasi ingliz tilida “k”, “c”, “ch”, “cc”, “lk”, “q”, “qu”, “ck”, “x” kabi harf va harf birikmalari bilan (kid /kɪd/ - bola, cat /kæt/ - mushuk, chemistry /ˈkem.ɪ.stri/ - kimyo, accord /əˈkɔːd/ - yaxshi muomala qilmoq, talk /tɔːk/ - suhbatlashmoq, quick /kwɪk/ - tez), conquer /ˈkɒŋ.kə/ - bosib olmoq, check /tʃek/ - tekshirmoq, fox /fɒks/ - tulki); o‘zbek tilida “k” harfi bilan (kim /kɪm/) ifodalanadi.

/l/ fonemasi ingliz va o‘zbek tillarida til oldi, sirg‘aluvchi, yon sonor, og‘iz undoshi bo‘lib, uning so‘zdagi o‘rni mazkur tillarda cheklanmagan (ingliz tili: so‘z boshida: let /let/ - ruxsat bermoq, so‘z o‘rtasida: ruler /ˈruː.lə/ - mamlakat boshlig‘i, so‘z oxirida: ball /bɔːl/ - koptok; o‘zbek tili: so‘z boshida: lola /lɒˈlʌ/, so‘z o‘rtasida: baliq /bʌˈlɪq/, so‘z oxirida: dil /dɪl/). YOzma nutqda /l/ fonemasini ingliz tilida “l”, “ll” kabi harf va harf birikmalari (lack /læk/ - kamchilik, doll /dɒl/ - qug‘irchoq), o‘zbek tilida “l” harfi (gul /gʊl/) ifodalab keladi. “l” harfining ba’zi so‘zlarda o‘qilmaslik holati ingliz tiliga xos bo‘lib (calf /kɑːf/ - buzoq, chalk /tʃɔːk/ - bo‘r, calm /kɑːm/ - tinchlantirmoq, should /ʃʊd/ -lozim), uning bu xususiyati o‘zbek tilida uchramaydi.

/m/ fonemasi chog‘ishtirilayotgan tillarda lab-lab, portlovchi, sonor, burun undoshi bo‘lib, distributsiyasiga ko‘ra, u ingliz tilida ham, o‘zbek tilida ham so‘zning istalgan o‘rnida kela oladi (ingliz tili: so‘z boshida: mother /ˈmʌðə/ - ona, so‘z o‘rtasida: mammy /ˈmæm.i/ - oyi, so‘z oxirida: bomb /bɒm/ - bomba; o‘zbek tili: so‘z boshida: mana /mʌnʌ/, so‘z o‘rtasida: imo /ɪˈmɒ/, so‘z oxirida: tom /tɒm/). Yozuvda /m/ fonemasi ingliz tilida “m”, “mm”, “mb”, “mn”, “lm” kabi harf va harf birikmalari bilan (book /bʊk/ - kitob, rummy /ˈrʌm.i/ - karta o‘yinlaridan biri, tomb /tuːm/ - maqbara, solemn /ˈsɒl.əm/ - jiddiy, helm /helm/ - lema boshqaruv roli); o‘zbek tilida “m” harfi bilan (mehr /mehr/) talqin qilinadi. “m” harfi ingliz tilidagi ba’zi so‘zlarda o‘qilmaydi (mnemonic /nɪˈmɒn.ɪk/ -

nimanidir eslatish maqsadida qo‘llanadigan qisqa she’r yoki jumla), biroq, uning bu xususiyati o‘zbek tiliga xos emas.

/n/ fonemasi ingliz va o‘zbek tillarida til oldi, portlovchi, sonor, burun undoshi bo‘lib, u har ikki tilda ham so‘zning turli o‘rinlarida masalan, so‘z boshida (ingliz tili: /neɪl/ - tirnoq, o‘zbek tili: non /nɒn/), so‘z o‘rtasida (ingliz tili: bonny /ˈbɒn.i/ - chiroyli, sog‘lom, o‘zbek tili: ona /ɒˈnʌ/) va so‘z oxirida (ingliz tili: mean /miːn/ - ma’no bildirmoq, o‘zbek tili: sen /sen/) kelishi mumkin. Grafemik xususiyatiga ko‘ra, /n/ fonemasi ingliz tilida “n”, “nn”, “kn”, “gn”, “pn”, “mn” kabi harf va harf birikmalari bilan (nod /nɒd/ - boshini silkitmoq, sunny /ˈsʌn.i/ - quyoshli, knee /niː/ - tizza, gnaw /nɔː/ - tishlamoq, chaynamoq, pneumonia /njuːˈməʊniə/ - zotiljam, mnemonic /nɪˈmɒn.ɪk/ - nimanidir eslatish maqsadida qo‘llanadigan qisqa she’r yoki jumla), o‘zbek tilida “n” harfi bilan (nima /nɪmʌ/) beriladi.

/ŋ/ fonemasi chog‘ishtirilayotgan tillarda til orqa, portlovchi, sonor, burun undoshi bo‘lib, uning so‘zdagi o‘rni har ikki tilda ham cheklangan. Unga ko‘ra, /ŋ/ fonemasi chog‘ishtirilayotgan tillarda so‘z boshida uchramaydi, so‘z oxirida esa har ikki tilda ham qo‘llanadi (ingliz tili: among /əˈmʌŋ/ - orasida; o‘zbek tili: tong /tɒŋ/). Ingliz tilida /ŋ/ fonemasi so‘z o‘rtasida ham qo‘llanishi mumkin (hungry /ˈhʌŋ.gri/ - qorni och). Biroq, o‘zbek tilida u so‘z o‘rtasida bo‘g‘inga ajralishi mumkinligi tufayli mustaqil fonema hisoblanmaydi (ko‘nglim /koʻngˈlɪm/). /ŋ/ fonemasi yozuvda ingliz tilida “ng”, “n”, “ngue” kabi harf va harf birikmalari bilan (sing /sɪŋ/ - kuylamoq, drink /drɪŋk/ - ichmoq, tongue /tʌŋ/ - til), o‘zbek tilida “ng” harf birikmasi bilan ifodalanadi (qarang /qʌˈrʌŋ/).

/p/ fonemasi lab-lab, portlovchi, jarangsiz, og‘iz undoshi bo‘lib, uning so‘zdagi o‘rni mazkur tillarda cheklanmagan (ingliz tili: so‘z boshida pat /pæt/ - silamoq, so‘z o‘rtasida: soppy /ˈsɒp.i/ - hissiyotga to‘la, so‘z oxirida map /mæp/ - xarita; o‘zbek tili: so‘z boshida paxta /pʌxˈtʌ/, so‘z o‘rtasida: upa /ʊˈpʌ/, so‘z oxirida qop /qɒp/). YOzma nutqda /p/ fonemasini ingliz tilida “p”, “pp”, ba’zi so‘zlarda “gh” kabi harf va harf birikmalari (pot /pɒt/ - idish, poppy /ˈpɒp.i/ - gul turi, hiccough /ˈhɪk.ʌp/ hiqichoq), o‘zbek tilida “p” harfi (pilla /pɪlˈlʌ/) ifodalab keladi. “p” harfi ingliz tilidagi ba’zi so‘zlarda o‘qilmaydi (ptarmigan /ˈtɑːmɪgən/ - qush turi, pneumatic /njuːˈmæt.ɪk/ - havo bosimi bilan boshqariladigan, psalm /sɑːm/ - muqaddas she’r yoki qo‘shiq, raspberry /ˈrɑːzbəi/ - malina, cupboard /ˈkʌb.əd/ - idish javoni), biroq, uning bu xususiyati o‘zbek tilida mavjud emas.

/r/ fonemasi artikulyasion-akustik xususiyatiga ko‘ra, ingliz tilida kakuminal (til uchi qattiq tanglay tomon qayrilib talaffuz qilinadigan), sonor, og‘iz undoshi; o‘zbek tilida til oldi, titroq, sonor, og‘iz undoshi bo‘lib, uning so‘zdagi o‘rni ingliz tilida cheklangan (so‘z boshida: rabbit /ˈræb.ɪt/ - quyon, so‘z o‘rtasida: carry /ˈkær.i/ - tashimoq), o‘zbek tilida cheklanmagan (so‘z boshida: raqs /rʌqs/, so‘z o‘rtasida: taroq /tʌˈrɒq/, so‘z oxirida: bajar /bʌˈdʒʌr/) sanaladi.

Yozuvda /r/ fonemasi ingliz tilida “r”, “rr”, “wr”, “rh” kabi harf va harf birikmalari bilan (rent /rent/ - ijara puli, marry /ˈmær.i/ - turmush qo‘rmoq, wrong /rɒŋ/ - noto‘g‘ri, rhythm /ˈrɪðəm/ - ritm), o‘zbek tilida “r” harfi bilan (ruxsat /rʊxˈsʌt/) talqin qilinadi. “r” harfining ba’zi so‘zlarda o‘qilmaslik holati ingliz tiliga xos bo‘lib (fear /fɪə/ - qo‘rquv, fair /feə/ - adolatli, far /fɑː/ - uzoq, four /fɔː/ - to‘rt), uning bu xususi yati o‘zbek tilida uchramaydi.

/s/ fonemasi chog‘ishtirilayotgan tillarda til oldi, sirg‘aluvchi, jarangsiz, og‘iz undoshi bo‘lib, distributsiyasiga ko‘ra, u ingliz tilida ham, o‘zbek tilida ham so‘zning istalgan o‘rnida kela oladi (ingliz tili: so‘z boshida: sad /sæd/ - xafa, so‘z o‘rtasida: passage /ˈpæs.ɪdʒ/ - yo‘lak, so‘z oxirida: mass /mæs/ - ommaviy; o‘zbek tili: so‘z boshida: sariq /sʌˈrɪq/, so‘z o‘rtasida: qisiq /qɪˈsɪq/, so‘z oxirida: asos /ʌˈsɒs/). Grafemik xususiyatiga ko‘ra /s/ fonemasi ingliz tilida “s”, “ss”, “c”, “sc”, “ps”, “st”, “ce”, “se” kabi harf va harf birikmalari bilan (summer /ˈsʌm.ə/ - yoz fasli, message /ˈmes.ɪdʒ/ - xabar, city /ˈsɪt.i/ - shahar, science /saɪəns/ - ilm, fan, psychology /saɪˈkɒl.ə.dʒi/ - psixologiya, listen /ˈlɪsən/ - tinglamoq, lace /leɪs/ - bog‘ich, mouse /maʊs/ - sichqon), o‘zbek tilida “s” harfi bilan (sabzi /sʌbˈzɪ/) ifodalanadi. “s” harfi ingliz tilidagi ba’zi so‘zlarda o‘qilmaydi (isle /aɪl/ - orol, island /ˈaɪ.lənd/ - orol, aisle /aɪl/ - qatorlar orasidagi yo‘lak, corps /kɔː/ - bo‘linma, chamois /ˈʃæm.wɑː/ - echkisimon hayvon, rendesvous /ˈrɒn.deɪ.vuː/ - uchrshish haqida kelishuv, debris /ˈdeb.riː/ - nimanidir singan parchalari), uning bu xususiyati o‘zbek tiliga xos emas.

/t/ fonemasi ingliz va o‘zbek tillarida til oldi, portlovchi, jarangsiz, og‘iz undoshi bo‘lib, u har ikki tilda ham so‘zning turli o‘rinlarida masalan, so‘z boshida (ingliz tili: tall /tɔːl/ - uzun, o‘zbek tili: tarvuz /tʌrˈvʊz/), so‘z o‘rtasida (ingliz tili: water /ˈwɔː.tə/ - suv, o‘zbek tili: ota /ɒˈtʌ/) va so‘z oxirida (ingliz tili: but /bʌt/ - lekin, o‘zbek tili: soat /sɒˈʌt/) kelishi mumkin. YOzma nutqda /t/ fonemasini

ingliz tilida “t”, “tt”, “th”, “ed” kabi harf va harf birikmalari (tell /tel/ - aytmoq, bottle /ˈbɒt.l/ -butilka, thai /taɪ/ - tayland tili, worked up /wɜːkt ʌp/ - o‘ta tashvishda), o‘zbek tilida “t” harfi (taroq /tʌˈrɒq/) ifodalab keladi. “t” harfining ba’zi so‘zlarda o‘qilmaslik holati ingliz tiliga xos bo‘lib (thistle /ˈθɪs.l/ - yovvoyi gul, fasten /ˈfɑːsən/ - bog‘lamoq, hasten /ˈheɪsən/ - tezlashtirmoq, listen /ˈlɪsən/ - tinglamoq), uning bu xususiyati o‘zbek tilida uchramaydi.

/v/ fonemasi chog‘ishtirilayotgan tillarda lab-tish, sirg‘aluvchi, jarangli, og‘iz undoshi bo‘lib, distributsiyasiga ko‘ra, u ingliz tilida so‘zning istalgan o‘rnida (so‘z boshida: vacant /ˈveɪ.kənt/ - bo‘sh, band qilinmagan, so‘z o‘rtasida: navy /ˈneɪ.vi/ - dengiz floti, so‘z oxirida: wave /weɪv/ - to‘lqin), o‘zbek tilida so‘z boshida (vaqt /vʌqt/) va so‘z o‘rtasida (davlat /dʌvˈlʌt/) uchrashi mumkin. O‘zbek tili undoshlarining jarangli belgisi so‘z oxirida neytralizatsiyaga uchrab, jarangsizlanishi tufayli /v/ fonemasi so‘z oxirida deyarli uchramaydi. Yozuvda /v/ fonemasi ingliz tilida “v”, “f”, “ve” kabi harf va harf birikmalari bilan (value /ˈvæl.juː/ - qiymat, of /ɒv/ - *-ning*, brave /breɪv/ - jasur), o‘zbek tilida “v” harfi bilan (zavq /zʌvq/) beriladi.

/z/ fonemasi artikulyasion-akustik belgisiga ko‘ra ingliz tilida alveolar, sirg‘aluvchi, jarangli, og‘iz undoshi; o‘zbek tilida til oldi, sirg‘aluvchi, jarangli, og‘iz undoshi bo‘lib, distributsiyasiga ko‘ra, uning so‘zdagi o‘rni ingliz tilida cheklanmagan (so‘z boshida: zap /zæp/ - tez bajarmoq yoki tez borib kelmoq, so‘z o‘rtasida: dozen /ˈdʌzən/ - o‘n ikki, so‘z oxirida: raise /reɪz/ - ko‘tarmoq), o‘zbek tilida cheklangan (asosan, so‘z boshida (zor /zɒr/) va so‘z o‘rtasida (qoziq /qɒˈzɪq/) sanaladi. /z/ fonemasi o‘zbek tilida jarangli – jarangsiz belgisining neytralizatsiya qilinishi tufayli so‘z oxirida uchramaydi. Grafemik xususiyatiga ko‘ra, /z/ fonemasi ingliz tilida, “z”, “zz”, “s”, “ss”, “x”, “ze” kabi harf va harf birikmalari bilan (zip /zɪp/ - zamok, jazz /dʒæz/ - jaz musiqasi, pens /penz/ - ruchkalar, scissor /ˈsɪz.ə/ - qaychi, xenon /ˈzen.ɒn/ - gaz turi, freeze /friːz/ - muzlatmoq), o‘zbek tilida “z” harfi bilan (qirol /qɪˈrɒl/) talqin qilinadi.

/ʒ/ fonemasi ingliz tilida til oldi, tanglay-alveolar, sirg‘aluvchi, jarangli, og‘iz undoshi; o‘zbek tilida til oldi, sirg‘aluvchi, jarangli, og‘iz undoshi bo‘lib, uning so‘zdagi o‘rni har ikkala tilda ham cheklangan. Ingliz tilida /ʒ/ asosan, so‘z o‘rtasida (pleasure /ˈpleʒ.ə/ - xursandchilik) va so‘z oxirida (garage /ˈgær.ɑːʒ/ - garaj), o‘zbek tilida so‘z boshida (jurnal /ʒʊrnʌl/) va so‘z o‘rtasida (gijda /gɪʒdʌ/) uchrashi mumkin. O‘zbek tilida undoshlarning jarangli belgisi so‘z oxirida jarangsizlanishi sababli /ʒ/ fonemasi so‘z oxirida deyarli uchramaydi. YOzma nutqda /ʒ/ fonemasi ingliz tilida “s”, “si”, “z”, “ge” harf va harf birikmalari bilan (measure /ˈmeʒ.ə/ - o‘lchov, vision /ˈvɪʒ.ən/ - ko‘rish qobiliyati, azure /ˈæʒ.ə/ - moviy, rouge /ruːʒ/ - qizil yoki pushti rang upa), o‘zbek tilida “j” harfi bilan (goraj /gʌˈrʌʒ/ʃ/) ifodalanadi.

/tʃ/ fonemasi ingliz tilida til oldi, tanglay-alveolar, qorishiq, jarangsiz, og‘iz undoshi; o‘zbek tilida til oldi, qorishiq, jarangsiz, og‘iz undoshi bo‘lib, u har ikki tilda ham so‘zning turli o‘rinlarida masalan, so‘z boshida (ingliz tili: check /tʃek/ - tekshirmoq, o‘zbek tili: chertmoq /tʃertˈmɒq/), so‘z o‘rtasida (ingliz tili: teacher /ˈtiː.tʃə/ - o‘qituvchi, o‘zbek tili: sachoq /sʌˈtʃɒq/) va so‘z oxirida (ingliz tili: touch /tʌtʃ/ - teginmoq, o‘zbek tili: zich /zɪtʃ/) kelishi mumkin. YOzuvda /tʃ/ fonemasini ingliz tilida “ch”, “tch” , “tu”, “te” kabi harf va harf birikmalari (chain /tʃeɪn/ - zanjir, match /mætʃ/ - musobaqa, capture /ˈkæp.tʃə/ - qo‘lga olmoq, righteously /ˈraɪ.tʃə.sli/ - axloqli tarzda, odob bilan), o‘zbek tilida “ch” harfi (charchoq /tʃʌrˈtʃɒq/) ifodalab keladi.

/ʃ/ fonemasi ingliz tilida til oldi, tanglay-alveolar, sirg‘aluvchi, jarangsiz, og‘iz undoshi; o‘zbek tilida til oldi, sirg‘aluvchi, jarangsiz, og‘iz undoshi bo‘lib, uning so‘zdagi o‘rni mazkur tillarda cheklanmagan (ingliz tili: so‘z boshida: shop /ʃɒp/ - do‘kon), so‘z o‘rtasida: section /ˈsek.ʃən/ - qism, so‘z oxirida: cash /kæʃ/ - naqd pul; o‘zbek tili: so‘z boshida: sharq /ʃʌrq/, so‘z o‘rtasida: toshqin /tɒʃˈqɪn/, so‘z oxirida: kalish /kʌˈlɪʃ/). Grafemik xususiyatiga ko‘ra, /ʃ/ fonemasini ingliz tilida “sh”, “ce”, “s”, “ci”, “si”, “ch”, “sci”, “ti” kabi harf va harf birikmalari (shake /ʃeɪk/ - silkitmoq, ocean /ˈəʊʃən/ - okean, surety /ˈʃɔː.rə.ti/ - kafil, musician /mjuːˈzɪʃən/ - musiqachi, session /ˈseʃ.ən/ - rasmiy majlis, machine /məˈʃiːn/ - uskuna, qurilma, consciously /ˈkɒnʃə.sli/ - ongli tarzda, action /ˈæk.ʃ ə n/ - harakat, faoliyat), o‘zbek tilida “sh” harfi (shifo /ʃɪˈfɒ/) ifodalab keladi.

/j/ fonemasi artikulyasion-akustik xususiyatiga ko‘ra, ingliz tilida til o‘rta, tanglay, sirg‘aluvchi-sonant, jarangli, og‘iz undoshi; o‘zbek tilida til o‘rta, sirg‘aluvchi, jarangli, og‘iz undoshi bo‘lib, uning so‘zdagi o‘rni ingliz tilida cheklangan (asosan, so‘z boshida: yellow /ˈjel.əʊ/ - sariq va so‘z o‘rtasida: vineyard /ˈvɪn.jɑːd/ - uzumzor), o‘zbek tilida cheklanmagan (so‘z boshida: emoq /jeˈmɒq/, so‘z o‘rtasida: qaysi /qʌjsɪ/ va so‘z oxirida: qarag‘ay /qʌrʌˈgˈʌj/) sanaladi. YOzma nutqda

/j/ fonemasi ingliz tilida “y,”, “i” kabi harflar bilan (yard /jɑːd/ - hovli, onion /ˈʌn.jən/ - piyoz), o‘zbek tilida “y” harfi bilan (yo‘q /jo‘q/) ifodalanadi.

Ingliz va o‘zbek tillarida undosh fonemalarning distributsiyasi ham o‘ziga xos bo‘lib, unga ko‘ra ingliz tilida /b/, /d/, /g/, /dʒ/, /v/, /z/, /ð/ jarangli, /l/, /m/, /n/ sonor hamda /f/, /k/, /p/, /s/, /t/, /tʃ/, /ʃ/, /θ/ jarangsiz undoshlari; o‘zbek tilida /p/, /t/, /f/, /s/, /ʃ/, /tʃ/, /ts/, /k/, /q/, /x/, /h/ jarangsiz undoshlari va /l/, /m/, /n/, /r/ sonorlarining so‘zdagi o‘rni cheklanmagan, ular so‘z boshida, so‘z o‘rtasida va so‘z oxirida uchrashi mumkin. Biroq, ingliz tilidagi /r/, /w/, /ʒ/, /ŋ/, /j/ jarangli hamda /h/ jarangsiz undoshi; o‘zbek tilidagi /b/, /d/, /v/, /z/, /ʒ/, /dʒ/, /g/, /ŋ/ jarangli fonemalarining so‘zdagi o‘rni cheklangan bo‘lib, ular so‘zning istalgan o‘rnida kela olmaydi. Jumladan, ingliz tilida /h/ , /r/, /w/, /j/ fonemalari so‘z oxirida, /ʒ/, /ŋ/ fonemalari so‘z boshida; o‘zbek tilida /ŋ/ sonori so‘z boshida va so‘z o‘rtasida, /b/, /d/, /v/, /z/, /ʒ/, /dʒ/, /g/ jarangli undoshlarining so‘z oxirida qo‘llanilishi cheklangan. Bu borada o‘zbek tilidagi jarangli /j/ va /gʻ/ fonemalari o‘ziga xos bo‘lib, boshqa jarangli undoshlardan farqli o‘laroq, ularining jarangli belgisi so‘z oxirida jarangsizlanishi sezilarli darajada bo‘lmaganli sababli ularning distributsiyasiga ko‘ra so‘z oxirida uchrashi kuzatiladi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, undosh fonemalar ingliz va o‘zbek tillarida fonetik va grafemik jihatdan bir qator izomorf va allomorf xususiyatlarga ega. /b/, /d/, /v/, /z/, /ʒ/, /dʒ/, /g/, /j/, /p/, /t/, /f/, /s/, /ʃ/, /tʃ/, /k/, /h/, /l/, /r/, /m/, /n/, /ŋ/ undoshlarining akustik jihatdan har ikki tilda mavjudligi, distributsiyasiga ko‘ra, /l/, /m/, /n/ sonor hamda /f/, /k/, /p/, /s/, /t/, /tʃ/, /ʃ/, /θ/ jarangsiz undoshlarining so‘zdagi o‘rni cheklanmaganligi, “b, d, v, z, j, g, p, t, f, s, sh, ch, k, h, l, r, m, n, ng” harflari chog‘ishtirilayotgan tillarda /b/, /d/, /v/, /z/, /dʒ/, /g/, /p/, /t/, /f/, /s/, /ʃ/, /tʃ/, /k/, /h/, /l/, /r/, /m/, /n/, /ŋ/ fonemalarini ifodalab kelishi undoshlarning mazkur tillardagi izomorf jihatlari hisoblanadi. Ingliz tilidagi /θ/, /ð/, /w/ fonemalari o‘zbek tilida; o‘zbek tilidagi /q/, /gʻ/, /x/, /ts/ fonemalari ingliz tilida uchramasligi, ingliz tilida /r/, /w/, /ʒ/, /ŋ/, /j/ jarangli hamda /h/ jarangsiz undoshlari; o‘zbek tilidagi /b/, /d/, /v/, /z/, /ʒ/, /dʒ/, /g/, /ŋ/ jarangli fonemalarining so‘zdagi o‘rni cheklanganligi, ingliz tilida undoshlarning yozuvda bir nechta harf va harf birikmalari bilan ifodalanishi, ingliz tilida “b”, “h”, “l”, “m”, “n”, “p”, “r”, “s”, “t”, “w” harflarining ba’zi so‘zlarda o‘qilmaslik holatlari ingliz va o‘zbek tillarida undosh fonemalarning allomorf xususiyatlari sanaladi. Mazkur tafovutlarning mavjudligi chog‘ishtirilayotgan tillarda undoshlar tizimi fonetik va grafemik jihatdan ham o‘zaro to‘liq ekvivalent bo‘la olmasligini taqozo qiladi.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. 2-нашр. – Т.: Ўқитувчи, 2010. – 172 б.
2. Абдуазизов А.А. К типологии фонологических систем (на материале английского и узбекского языков): Автореф. дисс. ... д-ра. филол. наук. – М., 1974. – 37 с.; Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. 2-нашр. – Т.: Ўқитувчи, 2010. – 172 б.
3. Анисимова Е.А. Некоторые вопросы фонетики английского языка в сопоставлении с фонетикой узбекского языка// Ученые записки ТашГПИИЯ, вып. I. – Ташкент, 1956. – С.109-135.
4. Данияров Х. Опыт изучения джекающих (кыпчакских) диалектов в сравнении с узбекским литературным языком. – Т.: Фан, 1975. – 238 с.
5. Кононов А.Н. Грамматика современного литературного узбекского языка. – М.: Изд-во Академии наук, 1960. – 446 с.
6. Максумов А.Г. Артикуляционные, акустический, перцептивные и фонологические характеристики английских носовых сонантов (а сопоставлении с узбекскими): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1972. – 37 с.
7. Маматов А. Андижанский городской говор узбекского языка (фонетико-морфологические особенности говора): Автореф. дисс. … канд. фил. наук. – Т., 1967. – 26 с.
8. Махмудов А. Фонетическая система узбекского литературного языка: Автореф. дисс. … канд. фил. наук. – Т., 1980. – 59 с.
9. Миртожиев М.М. Ўзбек тили фонетикаси. – Т.: Фан, 2013. – 424 б.
10. Отамирзаева С. Экспериментально - фонетическое исследование наманганского говора узбекского языка. – Т.: Фан, 1974. – 193 с.
11. Поливанов Д.Е. Узбекская диалектология и узбекский литератарный язык. – Т.: Узгосиздат, 1933. – 45 с.
12. Решетов В., Шоабдураҳмонов Ш. Фонетика. – Т., 1953. – 28 б.
13. Решетов В.В. Основы фонетики и грамматики узбекского языка. – Т., 1965. – 243 с.
14. Скаличка В. Типология и сопоставительная лингвистика // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XXV. – Москва:Прогресс, 1989. Стр. 27-31.
15. Соколова М.А. и др. Теоретическая фонетика английского языка. – М.: Владос, 1996. – 286 с.
16. Торсуев Г.П. Фонетика английского языка, М.: Изд-во лит-ры на иност. языках, 1950. – 332 с.

17. Торсуев Г.П. Константность и вариативность в фонетической системе. – М.: Наука, 1977. – 125 с.
18. Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Т.: Ўзфанакаднашр, 1962. – 371 б.
19. Юсупов У. К. Теоретические основы сопоставителъной лингвистики. – Ташкент: Фан, 2007. Стр. 16-28.
20. Қудратов Т. Переходные говоры узбекского языка (На материале говоров Шахрисабзского, Яккабагского, Чиракчинского и Камашинского районов Кашкадарьинского области): Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Т., 1968. – 33 с.
21. Abduazizov A.A. English Phonetics (A Theoretical Course). – T.: Musiqa, 2007. – 256 p.
22. Cohen A. The Phonemes of English. 3rd print. – The Hague: Martinus Nijhoff, 1971. – 130 p.
23. Gimson A.C. An Introduction to the Pronunciation of English. 4th ed. – London: New York, 1989. – 364 p.
24. Jones D. An Outline of English Phonetics. 9th ed. – Cambridge:Heffer, 1960. – 378 p.
25. Jones D. The Phoneme: its Nature and Use. 4th ed. – Cambridge: W.Heffer & Sons Ltd, 2009. – 268 p.
26. Leontyeva S.F. A Theoretical Course of English Phonetics. – M.: Vyssaya skola, 1980. – 271p.
27. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o`zbek adabiy tili. – T.: Universitet, 2006. – 476 b.
28. Sjoberg A.F. Uzbek Structural Grammar. Indiana University. Vol.18. The Hague, 1963. – 158 p.
29. Ulrite Gut. Introduction to English Phonetics and Phonology. – Germany. Peter lang: Internationaler Verlag der Wissenschaften, 2009. – 229 p.
30. Vassilyev V.A. English Phonetics (A Theoretical Course). – Moscow: High School Publ. House, 1970. – 324 p.